

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI

SHE‘RIY MATNDA DEYKSIS (USMON AZIM SHE‘RLARI MISOLIDA)

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI

She’riy matnda deyksis (Usmon Azim she’rlari misolida).....3

САРБАРОВА ДИЛНОЗА НОСИРЖОН ҚИЗИ

Дейксис в поэтическом тексте (на примере стихов Усмана Азима).....29

SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI

Deixis in a poetic text (on the example of poems by Usman Azim).....58

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works62

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI

SHE‘RIY MATNDA DEYKISIS (USMON AZIM SHE‘RLARI MISOLIDA)

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fil4651 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasi www.uzmu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kurbanova Muxabbat Matyakubovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raupova Laylo Rahimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel.: (99871) 246-08-62; (99871) 227-10-59; faks: (99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti, Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti (1-qavat, 108-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi.

(2025-yil "_____" dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

N.A.Rahmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

M.B.Xujamqulova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

A.E.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. O'tgan asrning oxirlaridan boshlab jahon tilshunosligida inson omili, nutq jarayonida so'zlovchi shaxsni markazga qo'yish orqali tahlil qilishga e'tibor kuchaydi. Tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishi bilan til hodisalariga yondashuv ham o'zgardi. Til tadqiqiga yangicha yondashuv natijasida pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik, sotsiolingvistik aspektlardagi tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu yo'nalishlardan biri bo'lgan pragmalingvistika sohasida amalga oshirilgan ishlarda til birliklari kontekst, muloqot jarayoni, so'zlovchi va tinglovchining tashqi olamni anglashi bilan bog'liqlikda o'rganildi.

Dunyo tilshunosligi bugungi kunda tilni nutq vaziyati va kontekst, til egalarning tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari, til zaxiralari, tildan foydalana olish imkoniyatlari, nutq jarayonida yashirin ma'no ifodalaydigan birliklarni anglash, til ko'nikmalari kabi omillar bilan aloqadorlikda o'rganuvchi pragmalingvistika yo'nalishida ko'plab yutuqlarga erishdi. Xususan, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan deyktik birliklar haqida qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Deyktik xususiyatli birliklarning she'riy matnda qo'llanilishi, matn hosil qilish imkoniyatlari, ijodkor uslubini shakllantirishdagi o'rni masalasi hali to'liq o'rganilmagan. Har bir ijodkorning tildan foydalanish imkoniyati turlicha va o'ziga xos ekanligini inobatga olsak, hali bu borada yana qator tadqiqotlar qilinishi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi ilm-fan va ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, o'zbek tilining Davlat tili sifatidagi maqomini yanada oshirishga qaratilgan hamda uning taraqqiyoti uchun ishlab chiqilgan so'nggi farmon va qarorlar tilshunos olimlar zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda. Dissertatsiya mavzusining tilni inson omili bilan bog'liq ravishda tadqiq etishga bag'ishlanganligi tadqiqotning bugungi kun talablariga mos ekanligi va dolzarbligini asoslaydi. Ma'lumki, bevosita muloqot muhiti, asosan, matnda o'zining bor imkoniyatlari va xususiyatlarini namoyon etadi. Shunga ko'ra lingvistik birliklarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish matn lingvistikasini chuqurroq o'rganishni talab etadi. Zero, so'zlovchining axborotni uzatishdan ko'zlagan maqsadi, tinglovchining axborotni qanday qabul qilganligini matn orqali yanada aniqroq bilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4794-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari va mazkur soha

faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Deyksis hodisasi dunyo tilshunosligida keng tadqiq qilingan. Tilshunoslikda deyksisni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar, asosan, ikki yo'nalishda olib borilgan: 1) qiyosiy-tipologik aspekt; 2) kommunikativ-pragmatik aspekt. 1-yo'nalishda qiyoslanayotgan tillardagi umumiy va xususiy jihatlari o'rganilgan bo'lsa (A.M.Abashilova, S.S.Raximov, G.Rau), 2-yo'nalishda deyksisning nutqdagi o'rni, matndagi ifoda imkoniyatlari tadqiq qilingan (S.Levinson, Y.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, P.Stokvell, G.Sitta, A.A.Kibrik). Dunyo tilshunosligida, xususan, o'zbek tilshunosligida ham qiyosiy-tipologik aspektda hamda alohida tillar misolida olib borilgan ishlar mavjud. Shuningdek, deyksis nazariyasining mohiyati, tasnifi, deyksis turlari kabi umumnazariy masalalar bir qancha tadqiqot ishlarida yoritilgan. Jahon tilshunosligida I.V.Shmatova, I.A.Sternin, V.V.Jura, A.V.Kravchenko, Y.D.Apresyan, V.V.Burlakova¹ va boshqa olimlarning deyksis masalasiga doir tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

O'zbek tilshunosligida deyksis nazariyasiga oid qarashlar M.Hakimov, Sh.Safarovlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan². Shu bilan birga, qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslikda o'zbek tilining ayrim deytik birliklari ingliz, rus tili birliklari bilan qiyosan o'rganilgan ishlar ham alohida ahamiyatga ega³. Deyksis hodisasining lingvistik maydon nuqtayi nazardan o'rganish hamda uni shakllantiruvchi paralingvistik vositalarni aniqlash, deyksis turlari va ifodalanish usullari kabi masalalar R.Davlatovanning doktorlik dissertatsiyasida ochib berilgan⁴.

Bugunga qadar olib borilgan izlanishlarda she'riy matnning pragmatik xususiyatlari, she'riy matnda deyksisning ifodalanishi, xususan, Usmon Azim she'riyatida deytik birliklarning qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar hamda she'riy

¹ Шматова И.В. Дейксис в системе глагола современного английского языка. Автореф. дисс. ... канд филол. наук. – М., 1975. – 82 с.; Стернин И.А. К проблемы дейктических функций слова. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1973. – 32 с.; Жура В.В. Эмоциональный дейксис в вербальном поведении английской языковой личности. Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград: ВГПУ, 2000. – 97 с.; Кравченко А.В. Вопросы теории указательности: Эгоцентричность. Дейктичность. Индексальность. – Иркутск, 1992. – С. 86; Апресян Ю.Д. Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира // Семиотика и информация, 1986. Вып. 28. – С. 5-33; Бурлакова В.В. Дейктические категории в тексте // Предложение и текст: семантика, прагматика и синтаксис. – Ленинград: ЛГУ, 1988. – С. 85-88.

² Ҳақимов М. Прагмалингвистик тадқиқотлар тарихи. – Фарғона, 2020. – 148 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – 285 б.

³ Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разносистемных языках. – Ташкент: Фан, 1989. – 119 с.; Шерматов А. Инглиз илмий-техник матнида дейксиснинг ифодаланishi. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008 – 79 б.; Болтакулова Г.Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида темпораллик ва унинг дейктик хусусиятларининг киёсий-функционал тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 54 б.; Ишанжанова М. "Макон"ни ифодаловчи дейктик birlikларнинг чоғиштирма тадқиқи (француз ва ўзбек тилларидаги матнлар тахлили мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Андижон, 2021. – 58 б.

⁴ Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик birlikлари. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020. – 208 б.

matnda qo‘llanilgan deyktik birliklarning yondosh tushunchalar bilan munosabati maxsus tadqiq qilinmagan. Bu esa ushbu tadqiqot mavzusining monografik planda o‘rganilishini taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tili ta‘limi va tadqiqi muammolari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi she‘riy matnda qo‘llanilgan deyktik birliklarni aniqlash va pragmatik tabiatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda deyksis hodisasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish, ularga munosabat bildirish;

pragmatik mazmun ifodalovchi birliklarning she‘riy matnda ifodalanishini hamda deyksis bilan munosabatini aniqlash;

she‘riy matnda qo‘llanilgan deyksis turlarining funksional-pragmatik xususiyatlarini ochib berish;

ilohiy tushunchalarga ishora qiluvchi deyktik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini Usmon Azim she‘rlari misolida yoritish.

Tadqiqotning obykti sifatida Usmon Azimning “Saylanma”, “Yurak”, “Jimlik”, “Sog‘inch” kabi she‘riy to‘plamlarida qo‘llanilgan deyktik birliklar olingan.

Tadqiqotning predmetini she‘riy matnda qo‘llanilgan deyktik birliklarning funksional-pragmatik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, umumlashtirish, funksional-semantik, pragmatik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

deyktik birliklarning pragmatik xususiyatlari ilk bor she‘riy matn asosida ochib berilgan;

deyksisning pragmatik mazmun ifodalovchi birliklar bilan munosabati va ifodalanish usullari she‘riy matn asosida aniqlangan;

shaxs, predmet, zamon, makon, belgi, miqdor, ijtimoiy, emotsional kabi deyksis turlarining funksional-pragmatik jihatlari she‘riy matn orqali dalillangan;

yangi tur sifatida kiritilgan ilohiy tushunchalar deyksisining mazmun-mohiyati hamda she‘riy matndagi o‘ziga xosliklari Usmon Azim she‘rlari misolida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

she‘riy matnda qo‘llanilgan deyktik birliklarning nasriy matnda qo‘llanilishidan farqli va o‘xshash jihatlari oydinlik kiritilgan;

deyksisning pragmatik mazmun ifodalovchi boshqa vositalar bilan munosabati borasida fikr yuritilgan, misollar bilan dalillangan;

deyktik birliklarning she‘riy matn qismlarini bog‘lashdagi vazifasi hamda nutqiy tejamlilikka xizmat qilishi tahlillar asosida yoritilgan;

she'riy matnda deyktik birliklarning nimaga ishora qilayotganligini she'r sarlavhasidan yoki matn mazmunidan anglab olish zarurligi, har doim ham ko'rinib turgan predmetga ishora qilavermasligi asoslab berilgan;

she'riy matnda deyktik birliklar nutq egasining turli kommunikativ maqsadini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi isbotlangan;

nutq jarayonida deyktik birliklardan to'g'ri foydalanish amaliy jihatdan nutqning ta'sirchan chiqishini ta'minlashi misollar bilan dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga tayanganligi, tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligi, tahlil qilingan material hajmining yetariligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur dissertatsiya natijalaridan pragmatik, uslubshunoslik, matnshunoslik sohalari bo'yicha filologiya yo'nalishida ma'ruza, seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishda, oliy va o'rta maxsus, umumta'lim tizimida she'riy matnlarning tahliliga doir mavzu yuzasidan dars mashg'ulotlari o'tishda foydalanish mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqot ishi oliy ta'lim muassasalarining filologiya yo'nalishlarida "Lingvopoetika", "Matn tilshunosligi" hamda "Badiiy matnning lisoniy tahlili" kabi fanlardan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. She'riy matnda deyksis (Usmon Azim she'rlari misolida) tadqiqi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan amalga oshirilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanildi (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti 2025-yil 8-maydagi 261/1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha affikslarning deyktik birlik sifatida qo'llanilishi to'g'risidagi ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan, shuningdek, mazkur loyihada nazarda tutilgan vazifalarni yoritishda tadqiqot ishi zarur material vazifasini o'tagan.

Deyksisning pragmatik xususiyatlari tadqiqidan olingan natijalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2023-2024-yillarda amalga oshirilgan FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql va maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti 2025-yil 8-maydagi 260/1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada keltirilgan dalillar, tahlil natijalari she'riy matnning pragmatik xususiyatlarining ochib berilishi mazkur loyiha ishida ijobiy samara bergan; deyktik birliklarning matn hosil qilishdagi o'ziga xosligi yuzasidan xulosalar olingan, shu boisdan ham loyiha til birliklarining deyktik xususiyatiga oid yangi ilmiy dalillar asosida boyitilgan.

Shuningdek, "Buxoro viloyati teleradiokanali" tomonidan suratga olingan she'riyat olamiga bag'ishlangan ko'rsatuvlarda, she'riy matnning o'ziga xosligini

yoritishda, ishora birliklarining she'riy matndagi ahamiyati va ifodalanishi bo'yicha berilgan ma'lumotlarda ushbu dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Buxoro viloyati teleradiokanali" davlat muassasasining 2025-yil 17-apreldagi 01-09-73-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ma'lumotlar teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmunan mukammallashishiga, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga va ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligini ta'minlashiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan hamda ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 15 ta ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning "**Deyksis pragmalingvistikaning tayanch tushunchasi**" deb nomlangan birinchi bobida pragmatika sohasining taraqqiyoti va uning o'rganish obyekti bo'lgan deyksis tushunchasi borasida fikr yuritilgan. Deyksisga doir jahon va o'zbek olimlarining ilmiy-nazariy qarashlari tahlil qilingan, zarur o'rinlarda munosabat bildirilgan, shuningdek, she'riy matnda deyksisning pragmatik mazmun ifodalovchi boshqa birliklar bilan munosabati haqida ma'lumotlar misollar bilan yoritilgan. Bobning birinchi paragrafi "*She'riy matn pragmatikaning tadqiq obyekti sifatida*" deb nomlanadi. Ushbu faslda she'riy matnning o'ziga xosligi, pragmatik xususiyatlari hamda nasriy matn bilan o'xshash va farqliliklari xususida so'z boradi. She'riy matnlar o'ziga xos uslubga egaligi, adabiy til qonuniyatlariga har doim ham bo'ysunmasligi bilan ajralib turadi. Shoirlar nutqining jozibasini, barqarorligini so'z qo'llash bilan bir qatorda, shakldagi alohidalik ham ta'minlab beradi. Tilshunos olim R.Yakobson o'zining "Poetika masalalari" asarida she'r matnini tahlil qilish borasida shunday fikr bildiradi: "She'riy matnni tahlil qiluvchi tilshunosning vazifasi adabiylik yoki boshqacha aytganda, nutqning poetik asarga aylanishi va shu aylanishni amalga oshiruvchi vositalar tizimini o'rganishdir"⁵.

⁵ Якобсон Р. Поэтика масалалари (И.Мирзаев таржимаси) – Тошкент: ЎМЭ, 2004. – Б. 49.

She'r matnlarining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilgan I.Kovtunova⁶ she'riy asarlarda sarlavha va matn ko'p hollarda tema hamda rema munosabatiga to'g'ri kelishi haqida fikr bildiradi va ular orasidagi zich sintaktik aloqa sarlavha ega, matn esa bir qator fe'l-kesimlardan iborat bo'lganda yaqqol ko'rinishini aytadi. Shuningdek, u bunday hollarda she'riy matn yaxlitligicha predikat bo'lishini ta'kidlaydi. She'riy asarlarda keng tarqalgan o'ziga xos qurilishlardan yana biri predmetning nomi matnda aytilmay, unga ishora qiluvchi olmosh ifodalanadi. Darhaqiqat, olmoshlarning ishora qilish xususiyatiga egaligi uning deytik birlik sifatida faol qo'llanilishini ko'rsatadi. Tilshunoslikda olmoshlarning hamda boshqa turdagi deytik belgilarning signifikativ mazmundan xoli ekanligini, ularning referenti turg'un bo'lmasdan, balki nutq vaziyatiga nisbatan o'zgarib turishini E.Benvenist alohida ta'kidlagan⁷.

Nasriy matn va she'riy matnning o'ziga xos xususiyatlari Y.M.Lotman⁸ tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning farqli tomonlari, she'riy matnlarning tuzilishi, semantik va sintaktik jihatlari yoritilgan. Olim matnning alohida shaxs tomonidan ma'lum bir maqsadda yaratilib, bir qancha vazifani – ma'naviy, axloqiy, falsafiy, siyosiy, ijtimoiy vazifalar bajarishini ta'kidlaydi, shuningdek, nasr va nazmning farqli jihatlari quyidagicha izohlaydi:

“she'riyat – ritmik tarzda tashkil etilgan nutq;
nasr – oddiy nutq”⁹.

K.N.Batyushkov esa o'z tadqiqotlarida til tizimining matn tizimi bilan o'zaro bog'liqligini aniqlagan. Shuningdek, u til hamda she'riy matn o'rtasidagi o'zaro munosabatni his qilish lozimligini ta'kidlaydi: “She'r – ko'ngil tarjimoni, shoir – xalq dilining kuychisi. Uning quroli ona tili. Ushbu til zaminida ilhomi jo'shib, she'riyat degan san'atni yaratadi”¹⁰.

She'riy matnda hissiyotlar, bo'yoqdor leksika bilan yo'g'rilgan muallifning kommunikativ niyati o'ziga xos poetik usullar bilan ifodalanadi va buning vositasida tilning estetik vazifa bajarishi namoyon bo'ladi. She'riy til va she'riy nutq zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetika yo'nalishida keng o'rganilib kelinayotgan bo'lsa-da, she'riy matn pragmatikasi juda kam tadqiq qilingan. She'riy matnlarning tahlil etilishida nutq predmeti, adresat va kommunikativ vaziyat, shuningdek, she'riy kommunikatsiya, deyksis va shu kabi hodisalar bilan bog'liq masalalarni o'rganishda pragmatik yondashuvning muhim ekanligini ta'kidlash joiz.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Tilshunoslikda deyksis hodisasining nazariy asoslanishi*” deb nomlanib, deyksis terminining maydonga kelishi, uning mohiyati haqida mutaxassislarning qarashlari bayon qilingan hamda ularga munosabat bildirilgan. Nutqda so'zlovchining maqsadidan kelib chiqqan holda til birliklari o'rtasidagi mazmuniy aloqani topish, kontekstga murojaat qilish va u

⁶ Ковтунова. И.И. Поэтический синтаксис. – М.: Наука, 1986. – 208 с.

⁷ Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974. – 447 с.

⁸ Лотман Ю.М. О поэтах и поэзии. Анализ поэтического текста. – Санкт-Петербург, 1996. – 748 с.

⁹ Лотман Ю.М. Ко'rsatilgan manba. – С. 47.

¹⁰ Батюшков К.Н. Нечто о поэте и поэзии. – М., 1985. – С. 94.

orqali nutq ishtirokchilariga ma'lum bo'lgan axborotni tiklash kabilar *deyxisis* hodisasini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi.

Deyxisis hodisasini o'rganishga ilk marotaba qadimgi yunon grammatikachilari Aristotel, Diskollar tomonidan e'tibor qaratilgan. Ular predmetlarning o'zaro aloqador ekanligini ta'minlab beruvchi olmoshlarni deytik birliklar deb atashgan. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab dunyo tilshunosligida deyxisis hodisasini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb eta boshladi va tilning barcha sathlari doirasida amal qiladigan universal kommunikativ kategoriya sifatida o'rganila boshlandi. Bu davrga kelib nemis tilshunosi K.Brugman deyxisis muammosini o'rganishga alohida e'tiborini qaratdi. Uning tadqiqot ishlari keyinchalik tilshunoslikda deyxisis nazariyasining asoschisi sifatida e'tirof qilinuvchi nemis tilshunos olimi hamda psixologi K.Byuler tomonidan yanada rivojlantirildi.

“Deyxisis” so‘zining asl yunoncha ma‘nosi “ko‘rsatish”, “ishora” bo‘lib, ilmiy qo‘llanishda lison vositasida “voqelikka ishora, ko‘rsatish” mazmunini olgan. Ko‘rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni *deytik ibora* deb atashadi¹¹. Bu termin dastlab qadimgi yunon grammatikachilari tomonidan qo‘llanilgan. Deyxisis haqida monografik tadqiqot olib borgan N.A.Srebryanskaya deyxisisning nimaga ishora qilishi haqida to‘xtalar ekan, Ch.Filmorning “deyxisis – bu so‘zlovchi shaxsi va adresatga, fikr aytilayotgan makon va zamonga ishora” degan fikrini keltiradi¹².

Deyxisis hodisasi o'rganilgan bir qancha tadqiqot ishlarida tilning ishora birliklari turlicha nomlanadi. Jumladan, O.Jespersen ishora birliklariga nisbatan *shifter* terminini qo'llagan¹³, Ch.Pirs bunday birliklarni *indeks belgilar* deb nomlanishini tavsiya qilgan¹⁴. Y.V.Paducheva esa ishoraviy xoslangan birliklarni *egosentrik birliklar* deb nomlagan¹⁵. Amerikalik tilshunos J.Lyonsning “Semantics” asarida ham deyxisis muammosi batafsil o'rganilgan. Olim deyxisis hodisasiga quyidagicha ta'rif bergan: “Hech bo‘lmaganda bir so‘zlovchi va tinglovchi ishtirokini talab qiladigan muloqot vaziyatida yuzaga keladigan zamon-makon matnida namoyon bo‘ladigan shaxs, predmet, hodisa, harakatlarni belgilovchi, ularning o‘rnini ko‘rsatuvchi birlik deyxisis deb ataladi”¹⁶.

O‘zbek tilshunosligida ham deyxisis ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Deyxisis ilk marotaba qiyosiy-tipologik aspektida S.Raximov¹⁷ tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, olim o‘z monografiyasida tilshunoslikda deyxisis hodisasi, uning o‘rni va ahamiyati, turlari, morfologik, leksik vositalari, til

¹¹ Сафаров. Ш. . Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 154.

¹² Сребрянская Н.А. Дейксис и его проекции в художественном тексте. Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2005. – 506 с.

¹³ Jespersen O. Language: its nature, Development, and origin. – New York, 1922. – 456 p.

¹⁴ Пирс Ч.С. Логические основания теории знаков. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2000. – С. 59.

¹⁵ Падучева Е.В. Эгоцентрические единицы языка и режимы интерпретации. www.диалог-21.ру > медиа > падучеваев.

¹⁶ Lyons J. Semantics. Vol. 1 and 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 637.

¹⁷ Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разносистемных языках. – Ташкент: Фан, 1989. – 119 с.

tizimidagi o‘rni haqida so‘z yuritgan. Shuningdek, u o‘zbek tilining ayrim deyktik birliklarini ingliz tili materiallariga qiyosan o‘rgangan.

O‘zbek tilshunosligida deyktik birliklarning qo‘shma gap tarkibida qo‘llanish xususiyatlari haqida N.Mahmudov¹⁸ so‘z yuritgan. Tilshunos olim qo‘shma gaplarning shakliy-mazmuniy tuzilishini tahlil etar ekan, ularni turlarga ajratishda deyktik birliklarning bosh gap tarkibida ishtirok etishiga ko‘ra tasniflaydi. Bu tasnifga ko‘ra ergashgan qo‘shma gaplar bosh gaplarda havola bo‘lakning ishtirokiga ko‘ra havola bo‘lakli va havola bo‘laksiz gaplarga ajratiladi. N.Mahmudov *havola bo‘lak* deganda deyktik belgilarni nazarda tutadi va deyktiklar mazmunan kuchsiz, bo‘sh so‘zlar sifatida voqea, belgi, narsalarni bevosita ifodalamay, ularga ishora, havola qilishini qayd etadi. Sh.Safarovning “Pragmalingvistika” nomli monografiyasida ham deyksisga oid qimmatli fikrlar bildirilgan bo‘lib, olim deyktik birliklar vazifasini shunday izohlaydi: “Nutqiy faoliyatda doimo lisoniy shaklni voqelik bilan bog‘lash hamda unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ehtiyoji tug‘iladi. Xuddi shu vazifalar ijrosi deyktik vositalar zimmasidadir”¹⁹. O‘zbek tilshunosligida matnni pragmatik jihatdan o‘rgangan M.Hakimov²⁰ deyktik birliklarning ishora obyektiga gapda bevosita aks etmasligi, unga kontekst orqali aniqlik kiritilishi, deyktik birliklarning nutq subyektining yashirin maqsadlari haqida xabar berishi xususida fikr yuritadi. Deyksis haqida monografik aspektda tadqiqot olib borgan R.Davlatova²¹ deyksisning pragmatikaning o‘rganish obyektiga ekanligi, tilshunoslikda bu xususdagi qarashlar, deyksis tasnifi masalasidagi yondashuvlar haqida munosabat bildirgan. Olima o‘zining tadqiqotida deyksis hodisasining lingvistik maydon nuqtayi nazardan o‘rganish hamda uni shakllantiruvchi paralingvistik vositalarni aniqlash, deyksis turlari va ifodalanish usullari kabi masalalarni yoritgan.

Bobning so‘nggi paragrafi “*She‘riy matnda pragmatik mazmun ifodolovchi vositalar*” deb nomlanib, ushbu paragrafda she‘riy matnda deyksisning anafora, nutqiy akt hamda subyektiv baho kabi tushunchalar bilan aloqasi, yonma-yon kelishi, shuningdek, o‘xshash hamda farqli tomonlari yoritilgan. Pragmalingvistikada anafora va deyksis o‘xshash hamda yondosh hodisalar sifatida baholanadi. Sh.Safarov: “Anafora deyktik mazmundan xoli emas, bu ikki vazifa yagona bir kontekstda, ayni bir paytning o‘zida bajarilishi mumkinligini hozircha hech kim inkor etganicha yo‘q”²², – deya munosabat bildirgan. Olim o‘zining “Pragmalingvistika” nomli monografiyasida deyksis va anaforani farqlash lozimligini ta’kidlaydi. Hozirgi davrga qadar tilshunoslikda deyksis hamda anafora hodisalari aniq chegaralanmagan. Ushbu hodisalar to‘g‘risida ayrim tadqiqotchi olimlar bir-biriga zid bo‘lgan qarama-qarshi fikrlarni bildirishadi. Jumladan, N.N.Volkov deyksis va anafora tushunchalarini shunday chegaralab beradi:

¹⁸ Махмудов Н. Эргаш гаплар таснифи масаласи // Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси / Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 243.

¹⁹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – 285 б.

²⁰ Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 15.

²¹ Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020. – 208 б.

²² Сафаров Ш. Ко‘рсатилган манба. – Б. 187.

“Deyksis nutqiy faoliyat vaziyatining tarkibiy qismlarini ko‘rsatsa, anafora esa aynan matn tarkibiy qismlarini, ya’ni bir nutq faoliyatining boshqa biriga muayyan tenglashtirilishini ifoda etadi. Demak, anaforik ko‘rsatish deyksisning xususiy ko‘rinishidir”²³. Agar ifodalanayotgan fikr matn doirasiga tayangan bo‘lsa, bu anaforik holat hisoblanadi. Agarda ifodalanayotgan fikr matni bo‘lmagan doiraga qaratilgan bo‘lsa, bu deytik holat hisoblanadi. Olmon tilshunos olimi K.Eglixning²⁴ tadqiqot ishida boshqa olimlar fikrlaridan farqli qarashlarni ko‘rishimiz mumkin. U anafora va deyksisni o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq hodisalar ekanligini ta’kidlaydi. Olim bu ikki hodisaning o‘zaro o‘xshash tomonlari ularning nutqda ham bir-biriga o‘xshash vazifalarni bajarib kelishida va adresatning diqqat-e’tiborini kommunikativ jarayonga tortishida ekanligini aytadi. O‘zbek tilida “u” va “bu” kabi ko‘rsatish olmoshlari anaforik holatda eng faol qo‘llanadigan olmoshlar sanaladi. Buni quyidagi misol orqali ham ko‘rishimiz mumkin:

*O‘tgan zamonda bir boy bor ekan. Uning bir eshagi va bir ho‘kizi bor ekan. U odamning yeri ko‘p ekan, bu yerlarni qarol – qo‘shchilarga ektirib, kun o‘tkazar ekan*²⁵.

Ma’lum bo‘lganidek, anaforaning xususiyatlari matn orqali amalga oshadi. U ko‘p hollarda o‘zidan avval kelgan birliklarga ishora qilib keladi.

So‘zlovchining ko‘zlagan maqsadida, shuningdek, uning nutqiy faoliyati hamda tinglovchiga yetkazib berish jarayonida pragmatik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Inson harakat holatining nutqiy faoliyat orqali ifoda etilishi natijasida esa nutqiy aktlar yuzaga keladi. Pragmalingvistikada muhim o‘rin tutuvchi nutqiy aktlar deyksis bilan yonma-yon keluvchi yana bir tushunchalardan biri hisoblanadi. Tilshunos olim M.Hakimovning ta’rifiga ko‘ra, “Nutqiy akt tushunchasi odamlar orasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o‘zaro ma’no aktlari munosabatining bayonidir”²⁶.

Nutqiy aktlar ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, J.Ostin, K.Allan, J.Serl kabi pragmalingvist olimlar tomonidan nutqiy akt nazariyasiga oid ilmiy taqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Sh.Safarov, M.Hakimovlar ham o‘z tadqiqot ishlarida nutqiy akt nazariyasi bo‘yicha o‘z qarashlarini bildirishgan hamda yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning nutqiy akt tasnifiga doir tavsiflarini sharhlab o‘tishgan. Pragmalingvistikaga doir adabiyotlarda nutqiy aktning *lokutiv*, *illokutiv*, *perlokutiv* kabi turlari keltirib o‘tilgan. She’riy matnlarda nutqiy aktning sanab o‘tilgan uch ko‘rinishi ham ifodalanishi mumkin. Shuningdek, nutqiy aktlar she’riy matnda ishoraviylik mazmuni bilan yonma-yon keladi. Buni quyida keltirilgan misralar orqali ko‘rishimiz mumkin:

*O, sasing yetishdi ruh ila tanga,
Rahmat, kalomlaring buncha muloyim!..*

²³ Волков Н.Н. Семантика и дейктические функции личных местоимений в современном английском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: МГПИИЯ, 1984. – С. 8.

²⁴ Eglix K. Anaphora and deixis: same, similar or different? // Speech, place and action: Studies in deixis and related topics Chichester etc. – Wiley, 1982 – P. 318-331.

²⁵ Эртактлар, мақоллар, топишмоқлар. – Тошкент: Фафур Фулом, 2019 – Б. 4.

²⁶ Ҳақимов М.Х. Ко‘rsatilgan manba. – Б. 8.

Ushbu misralarda nutqiy aktning lokutiv ko‘rinishi ifodalangan bo‘lib, uni misra boshida kelgan undov so‘zdan ham anglab olish mumkin. Mammuniyat va minnatdorlik akti ifodalangan bu misralarda ishoraviylik ham namoyon bo‘ladi. Baytlardan go‘yoki shaxsga ishora qilinayotganday tuyulsa-da, lekin bu she‘rda yaratganga ishoraviylik mavjud. Bu esa keyingi misralarda yanada oydinlashadi:

Meni o‘chirtirma biror bandanga,

O‘zing o‘chir meni, o‘zing, Xudoyim! (Saylanma, 183-b.)

Bu misralarda esa nutqiy aktning illokutiv maqsad ifodalashiga guvoh bo‘lamiz. Illokutiv maqsad ta‘kid hamda kuchli his-hayajon bilan birgalikda ifodalangan bo‘lib, buni *o‘zing* olmoshini takror qo‘llanilganidan ham anglash mumkin.

Uyingizni topib bormasin xatlar,

Yomg‘irlar chertmasin derazangizni.

Sizga hamroh bo‘lsin eng og‘ir dardlar,

Eng mitti dardlar ham qiynasin sizni. (Saylanma, 89-b.)

Yuqoridagi misralarda ham illokutiv maqsad ifodalangan bo‘lib, qahramonning sevgilisiga bo‘lgan iztirobli “niyat-maqsadlari” bayon qilingan. O‘zaro zidlikni hosil qilgan *eng og‘ir dardlar* hamda *eng mitti dardlar* so‘zlari orqali g‘am-alam, iztirob, kuchli sog‘inch kabi tuyg‘ularga ishora qilingan. Shuningdek, bu misralarda buyruq akti ham ko‘zga tashlanadi: *topib bormasin, chertmasin, qiynasin...*

Nutqiy akt sodir bo‘lishida so‘zlovchi va tinglovchining o‘rni muhim hisoblanadi. So‘zlovchining, shu bilan bir qatorda, tinglovchining ham qiziqishlari, munosabatlari nutqiy aktlar tasnifida muhim ro‘l o‘ynaydi. Nutqiy voqelanishning deyarli barcha o‘rinlarida deyxsisning nutqiy akt tarkibida kelishini, xususan, she‘riy matnlarda deyxsisning nutqiy akt doirasida ifodalanganini ko‘rish mumkin. She‘riy matnlarda so‘roq gaplarning ifodalanishi pragmatik mazmun doirasini kengayishiga sabab bo‘ladi. Chunki so‘roq gaplar faqatgina sintaktik birlik bo‘libgina qolmay, muloqot birligi sifatida pragmatik vaziyatning talabi bilan so‘zlovchining kommunikativ niyatini, maqsadini, subyektiv munosabatini, shuningdek, ichki kechinmalari va ruhiy holatini ham ifodalab keladi. Buni Usmon Azimning “Saylanma”sidan olingan quyidagi misralarda ko‘rishimiz mumkin:

“Tosh ham gullaydimi?” (so‘roq-ajablanish, hayratlanish);

“Ne a‘mol bor ro‘zimda?” (so‘roq-ta‘kid, taajjub);

“O‘zi seni nega sevdim?” (so‘roq-pushaymonlik, afsuslanish);

“Dilingdan menimi tamom o‘chirding” (so‘roq- taajjub, hayratlanish);

“Vatan, senga bu tanho jonim, Ulgurdimi qorishmoqlikka?” (so‘roq- ta‘kid);

“Tugab borar sabotim, Bu ne tiriklik, tangrim?” (so‘roq-iltijo, norozilik);

“Bu senmi istiqbol chevar Ollohning, Izmid borlig‘in etayotgan bunyod?”
(so‘roq-hayrat, mamnunlik);

“O‘sha o‘q kimgadir, menga tegsa ne gumon?” (so‘roq-ta‘kid, gumon);

“Xudoyim, qovrildim, tugaydi qachon?” (so‘roq-norozilik, iltijo).

Pragmatikaning asosiy tushunchalaridan yana biri baho munosabati hisoblanib, “baholash voqelikni idrok etishning muhim bosqichidir. U voqelikdagi

predmetlar, hodisalar haqida mantiqiy tushuncha – konseptning yaratilish jarayonida faollashadigan nutqiy-mantiqiy harakatdir va shu harakat nihoyasida tug‘iladigan mazmundir”²⁷. Baho munosabati E.M.Volf tomonidan funksional-semantik jihatdan tadqiq etilgan bo‘lsa, N.D.Arutyunova tomonidan esa logik-semantik yo‘nalishda o‘rganilgan. Tilshunos olim V.P.Tugarinov ham o‘z tadqiqotlarida baho munosabatlarining mohiyati haqida munosabat bildirgan.

Baho ma‘nosi obyekt va subyektning o‘zaro munosabatlari asosida ifoda etiladi. Subyektiv baho “daqiqalik”, ya‘ni vaqtinchalik bo‘lib, u o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘ladi. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari qahramoni Zaynabga kitobxon tomonidan ijobiy yoki salbiy timsol deb munosabat bildirilishi ikki xil baho munosabatini ifodalaydi. She‘riy matnda ham subyektiv baho munosabati ko‘p o‘rinlarda ko‘zga tashlanadi, shuningdek, u ishoraviylik mazmuni bilan yonma-yon keladi.

Tadqiqotchi S.Maxsumova²⁸ pragmatik ma‘noning metaforalar orqali hosil qilinishi haqida munosabat bildirgan va so‘zlarning ko‘chma ma‘noda qo‘llanilganida bir qancha ma‘no ifodalashi, ana shu ko‘chma ma‘nolarning birini qo‘llash orqali baho munosabati ifodalanishini E.Vohidovning she‘riyati misolida yoritib bergan. Lisoniy birliklar mazmuniy strukturasidagi baho semasi, uning ifodalanish yo‘llari o‘zbek tilshunosligida G‘.Qambarov²⁹ tomonidan o‘rganilgan. Olim o‘zining tadqiqot ishida baho munosabatini ifodalashning fonetik, morfologik, leksik, sintaktik kabi usullariga to‘xtalib o‘tgan va misollar orqali izohlab bergan. Tadqiqotchi so‘z turkumlari ot, sifat, fe‘l, ravish kabilarda baho munosabati ifodalanishini shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar orqali yoritib bergan. Usmon Azim she‘rlarida ham subyektiv baho munosabati yuqorida sanalgan barcha vositalar orqali ifodalangan bo‘lib, shoir she‘rlarida qo‘llanilgan sifatlar, ayniqsa, rang bildiruvchi sifatlar boshqa leksik vositalarga nisbatan keng qo‘llanilgan. Quyida keltirilgan she‘riy matnda ranglar orqali baho munosabati ifodalangan:

Oq yomg‘irda boshyalang,

Raqs tushamiz ikkimiz. (Saylanma, 83-b.)

Yuqoridagi misralarda yomg‘irga oq deya baho berilmoqda. Vaholanki, yomg‘irning rangsiz bo‘lishi barchaga ayon. Shoir oq rang orqali yomg‘irning pokligiga, qolaversa, u orqali tabiatning ham poklanishiga ishora qilmoqda. Boshyalang oq yomg‘irda yurish orqali esa, she‘r qahramonining ham gunohlardan poklanishga bo‘lgan xohishi ifodalangan.

Sog‘inchning gullari,

Qop-qora gullar! (Saylanma, 39-b.)

Bu misralarda lirik qahramonning cheksiz sog‘inch iztiroblari qora rangli gullar – metaforik baho orqali ifodalangan.

²⁷ Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 28.

²⁸ Махсумова С. Метафоралар орқали коннотатив-прагматик маънонинг ҳосил бўлиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – № 5. – Б. 96.

²⁹ Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 16.

*Men xazonni quvdim uyimdan,
Baxt haqida ko'rdim yashil tush.* (Saylanma, 92-b.)

Yuqoridagi misralarda tushga nisbatan *yashil* deya baho berilishi qahramonning ruhiy holatini, orzu-istaklarini ifodalab kelgan. Xazon va yashillik o'rtasidagi qarama-qarshilik esa she'ning ta'sir doirasini yanada kengayishiga xizmat qilgan.

Sh.Safarov obyekt, subyekt, asos, etalon (namuna) va baholash belgisi kabi tushunchalarni baho munosabatining namoyon bo'lishida muhim ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, baholashda eng birinchi o'rinda subyekt – obyekt munosabati ekanligini, ya'ni subyekt tomonidan obyektning muhimligi alohida ahamiyat kasb etishini aytib o'tadi³⁰. Olim o'z monografiyasida baholashni *emotsiya deyksisining ko'rsatkichlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi*. Ma'lumki, nutq subyektining hissiy-emotsional holati adresatga ta'sir etishini taqozo qiladi. Chunki so'zlovchi atrofida bo'layotgan voqea-hodisani baholash jarayonida o'z his-tuyg'ularini ifoda qiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“She'riy matnda deyksisning nutqiy voqelanishi”** deb nomlangan. Ushbu bobda deyksisning shaxs, predmet, makon, zamon, belgi, miqdor kabi turlarining she'riy matnda ifodalanish usullari va o'ziga xosliklari borasida fikr yuritilgan. Bobning birinchi paragrafi *“Shaxs va predmet deyksisini hosil qiluvchi birliklarning she'riy matnda ifodalanishi”* deb nomlangan. Tilshunoslikda kontekst uchun makon muhim degan qarashlar ham mavjud bo'lib, ayrim tadqiqotchilar esa bu fikrga qo'shilmaydilar. Ya'ni kontekst uchun shaxs birlamchi ekanligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, bularning har qaysisi kontekst talabi bilan markaz maydoniga chiqishi mumkin. Matn tarkibida qaysi bo'lak uchun ehtiyoj sezilsa, o'sha birlik markaz maydoniga aylanadi. “Ammo shuni ham kiritib ketishimiz kerakki, shaxsni ifodalovchi deyksislar ham, zamoni ifodalovchi deyksislar ham so'zlovchi so'zlab turgan nuqtaga nisbatan olinadi”³¹. Sh.Safarov ham shaxs deyksisini markaziy nuqta sifatida baholaydi va o'z fikrlarini shunday bayon qiladi: “Har qanday holatda ham to'rt o'lchovli maydon sifatida tasavvur qilinayotgan deytik maydonning markazida so'zlovchi shaxs turadi. Kechayotgan hodisa haqidagi axborotni ma'lum qilayotgan shaxs zamon va makonni o'zi egallagan o'ringa, vaqtga nisbatan belgilaydi”³². Shuningdek, olim kechayotgan (kechgan yoki kechadigan) hodisa to'g'risidagi axborotni ma'lum qilayotgan shaxs makon hamda zamoni o'zi egallab turgan vaqtga, o'ringa nisbatan belgilashi haqida fikr yuritadi. O'zbek tilida shaxsga ishora qiluvchi vositalar juda ko'p va xilma-xil. Tadqiqotchilar tomonidan *men, sen, u* kabi kishilik olmoshlari, shaxslarni ko'rsatuvchi *u, bu, o'sha* olmoshlari; *kimdir, allakim, birov* gumon olmoshlari; *hech kim (hech kimsa)* bo'lishsizlik olmoshi, shaxslarga nisbatan qo'llanuvchi *har kim (har kimsa), hamma, barcha, bari* belgilash olmoshlari; *kim* so'roq olmoshi; shaxslarga ishora qiluvchi *o'zi, o'zim, o'zing* tarzidagi o'zlik olmoshlari, atoqli otlar, egalik affikslari, fe'lning shaxs-son

³⁰ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 184.

³¹ Хужамкулова М. Содда гапда коммуникация ва прагматика муносабати. Монография. – Тошкент, 2023. – Б. 68.

³² Сафаров Ш. Ко'rsatilgan manba. – Б. 164.

ko‘rsatkichlari, otlashib, shaxslarga nisbatan qo‘llanuvchi son, sifat turkumiga oid so‘zlar; sintaktik birliklar: shaxslarga nisbatan murojaatni anglatuvchi birliklar, shaxslarni ko‘rsatuvchi kirish qurilmalar va boshqalar kiritiladi³³.

Shaxs deysisining matn tarkibida ifodalanishi ikki xil bo‘lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1) nutq egasi uchun ham, tinglovchi uchun ham ko‘rinib turgan va matndan ayon bo‘lgan shaxsga ishora:

Bu ikki ayol

Uni baxt deb bilar. (“Oila”)

2) nutq egasi uchun ham, tinglovchi uchun ham ko‘rinmagan, lekin ikkalasiga ham ayon bo‘lgan shaxsga ishora:

Men edimmi o‘sha – toshqinli bola

Dunyoni ko‘tarmoq ishqida vola. (“Dengizga boraman”)

Birinchi tasnif *bu, ana shu, mana bu* kabi ishora birliklari uchun xos bo‘lsa, ikkinchi tasnif uchun esa *u, o‘sha* kabi deytik birliklar xosdir. Atoqli otlar ham nutqda so‘zlovchiga ishora qiluvchi birliklardan biri hisoblanadi. Shaxs deysisini namoyon qiluvchi atoqli otlar ishoraviylik vazifasiga xoslanganligi bilan shaxsga ishora qiluvchi sof deytik birliklar qatoriga kiradi. Atoqli otlarning deytik xususiyatlarini tilshunos olim N.Mahmudov quyidagicha izohlagan: “Atoqli otlar logik jihatdan *bu, shu, u, o‘sha* kabi ko‘rsatish olmoshlariga juda yaqin turadi. Chunki atoqli otlar ham, bunday ko‘rsatish olmoshlari ham semantik jihatdan “to‘q” emas, ya’ni ularning ikkalasi ham muayyan obyektни bevosita ifodalamaydi, balki ayni obyektlarga ishora qiladi, ularni ko‘rsatadi”³⁴.

T.I.Misaylova vaziyat obyekti, predmet va shaxsga ishora qilinishiga ko‘ra umumlashtirilgan holda *denotativ deysis* terminini qo‘llagan³⁵. Mazkur termini qo‘llashda u “Tilshunoslik ensiklopedik lug‘ati”dagi deysisga berilgan ta’rifga tayangan: “Deysis nutqiy akt ishtiroklari hamda jumla tarkibiy qismlari denotativ mazmuni ahamiyatligini ko‘rsatishga xizmat qiladi”³⁶. Tadqiqotchi o‘z fikrlarini ushbu ta’rifida “*denotativ*” ifodasi mavjud ekanligi bilan dalillaydi.

Usmon Azim she’rlarida predmet deysisini hosil qilishda qo‘llanilgan morfologik ko‘rsatkichlardan biri ko‘rsatish olmoshlaridir. Ko‘rsatish olmoshlari *predmet* tushunchasini anglatuvchi quyidagi obyektlarga ishora qiladi:

– aniq narsa-buyumga. Bunda ishora qilinayotgan predmet ramziylik kasb etadi;

– noaniq narsa-buyumga. Bunda, ko‘pincha, predmet deb tasavvur qilinadigan, aslida esa mavhum tushunchani ifodalaydigan so‘zlar qo‘llaniladi;

– hayvon, qush, hasharotlarga ishora. Shoir she’rlarida mayda hasharotdan tortib yirtqich hayvonlarga ham ishora qilinadi.

– shaxs tasavvuridagi harakatga ishora;

³³ Давлатова Р. О‘sha manba. – Б. 48.

³⁴ Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – № 6. – Б. 30.

³⁵ Мисайлова Т.И. Дейксис как актуализация компонентов речевой ситуации и денотативного содержания в повествовательном и описательном художественных текстах. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Улан-Уде, 2005. – 43 с.

³⁶ Лингвистический энциклопедический словарь // <http://www.textologia.ru/slovari/lingvisticheskie-terminy/deyksis-v-lingvistike/?q=486&n=2200>

– predmet tasavvuridagi o‘rin-joyga ishora;
– predmet tasavvuridagi vaqtga ishora;
– predmet tasavvuridagi holat, vaziyatga ishora. Tadqiqot ishida har bir ifodalanish usuli she‘riy matn misolida izohlab berilgan.

She‘riy matnlarda keltirilgan deyktik birliklar ko‘rsatish, ishora qilish bilan bir qatorda, gapni mazmunan mukammallashuviga, so‘zlarni qayta qo‘llanmasligiga xizmat qilgan. Misralarda qo‘llanilgan deyktik birliklar nimaga ishora qilayotganligi har doim ham ochiq ifodalanmaydi. Ko‘p hollarda shoir ishora qilayotgan shaxs yoki predmetni topishni kitobxonning o‘ziga havola qiladi va shu orqali ularni mushohada yuritishga, o‘ylashga, mazmunni anglashiga undaydi. Bunda deyktik birliklar bilan birga she‘riy san’atlar, badiiy tasvir vositalari ham qo‘l keladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi “*She‘riy matnda zamon va makon deyksisini ifodalovchi birliklar*” deb nomlangan bo‘lib, zamon va makonga ishora qiluvchi deyktik birliklarning she‘riy matnda ifodalanishi yoritilgan. Zamonaviy tilshunoslikda deyksis hodisasi keng tadqiq qilingan bo‘lib, aksariyat tilshunoslar uning shaxs deyksisi, zamon va makon deyksisi kabi turlarini farqlashadi. Y.D.Apresyan³⁷ makon deyksisi haqida gapirganda, so‘zlovchi bilan birga kuzatuvchi shaxs haqida ham to‘xtalish zarurligini aytib, *bu yerda, u yerda, u yoqqa, bu yoqqa, u, bu, mana bu, ana u* kabi deyktik birliklar qo‘llanilgan jarayonda so‘zlovchi va kuzatuvchi bir shaxs ekanligini ta’kidlaydi. Shunday deyktik birliklar ham bo‘lib, bunday teng kelish har doim ham kuzatilmasligini ingliz tili materiallari asosida izohlaydi. “Muloqot faoliyati uchun makon va zamon hodisalari muhim ahamiyatga ega. Har bir voqea ma’lum bir makon va zamonda kechadi va u yoki bu hodisa haqidagi axborotni qabul qilayotgan tinglovchi uning qachon, qayerda sodir bo‘lganligini bilishga intiladi. Nutqiy aktlarning bu turi pragmatik jihatdan makon va zamon deyksisida o‘rganiladi”³⁸.

Tadqiqotchi M.Ishanjanova³⁹ dissertatsiyasining ikkinchi bobida fransuz va o‘zbek tillarida makonni ifodalovchi deyktik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari haqida so‘z yuritadi. Unda tadqiqotchi makon munosabatlarini o‘rganishda makon parametrlarini aniqlab olish ahamiyati va borliqda makon parametrlari so‘zlovchi joylashgan makon markazidan yo‘naluvchi to‘rt nuqtadan kelib chiqib belgilanishini yoritadi. Bular *oldida, orqada, o‘ngda, chapda* bo‘lib, bunday yondashuv makon ishora birliklarini tahlil qilishni va ularning tizimini yaratishni osonlashtirishini ta’kidlaydi.

Ko‘z yoshga arzir – sen, dedim, Quvonchga arzir – sen, dedim,

Bu boshim dunyoga arzir, Shu boshga arzir – sen, dedim,

Qo‘shig‘im tarzi – sen, dedim, Yuragim mag‘zi – sen, dedim.

Yuqorida keltirilgan misralarda takror qo‘llanilgan *sen* olmoshi shaxsga

³⁷ Апресян Ю.Д. Дейксис в лексике и грамматике наивная модел мира. – С. 277 // http://pcs.math.msu.su/~uspensky/journals/siio/35/35_12APRES.

³⁸ Кўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарканд, 2015. – Б. 96.

³⁹ Ишанжанова М. “Макон”ни ифодаловчи дейктик birliklarning cho‘g‘ishtirma tadqiqi (franzuz va ўzbek tillaridagi matnlar tahlili misolida). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Андижон, 2021. – Б. 15.

ishora qilayotganday tuyulsa-da, ushbu deyktik birlik orqali makonga, ya'ni vatanga ishora qilingan. Bu esa she'ning so'nggi misralarida qo'llanilgan *O'zbekiston* so'zi orqali yanada oydinlashadi.

Otamdan meros qolgansan, Bolamdan qarzim – sen, dedim...

Tog' ustiga chiqdim maston, Ko'z oldimda O'zbekiston. (Saylanma, 102-b.)

Darhaqiqat, nutq jarayonini so'zlovchi va tinglovchiga yo'naltirilgan deyktik birliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, makon va zamonni ko'rsatmay gapni shakllantirib bo'lmaydi. Voqelik kechayotgan vaqtni bevosita ko'rsatmay, unga muayyan til birliklari orqali ishora qilinishi *zamon deyksisi* deyiladi. Ilmiy adabiyotlarda deyktik iboralarning kommunikativ hodisa – uzatilayotgan axborotning ma'lum qismlarini alohida ta'kidlash, aniqlashtirish uchun xizmat qilishi ta'kidlanadi. Sh.Safarov deyktik markazni tarkib toptiruvchi qismlar quyidagi 4 qismdan iborat ekanligini aytib o'tadi: 1. Markaziy shaxs – so'zlovchi; 2. Markaziy vaqt (zamon) – nutqiy harakat ijro etilayotgan vaqt; 3. Markaziy makon – so'zlovchining nutqiy harakat bajarilayotgan paytdagi o'rni; 4. Ijtimoiy markaz – so'zlovchining ijtimoiy mavqeyi⁴⁰.

“Matnda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar bayoni va ular haqida axborot uzatishda uning kechish davriga, paytiga ishora qiluvchi iboralar qo'llaniladi. Bunday ishora vazifasini zamon (vaqt) deyksisi vositalari bajaradi. Zamon yoki temporal deyksis deb ifodalanuvchi bunday lisoniy vositalar ish harakatining biror bir nutqiy akt ijrosidan oldingi yoki keyingi davriga ishora qiladi”⁴¹. Shoirning nutq vaziyatida qaysi paytga ishora qilayotganligini aniqlash uning kommunikativ maqsadini to'g'ri anglashga yordam beradi.

U payt kitob o'qir edi qish –

Hayajondan titrab tovushi. (Sog'inch, 52-b.)

Keltirilgan ushbu misralarda *u* ko'rsatish olmoshi *payt* so'zi bilan birga kelib bolalik davriga ishora qilgan. Buni she'ning “Bolalikdan ikki xotira” deb nomlanishidan ham bilib olish mumkin.

Zamon deyksisi haqida so'z yuritar ekan, A.Ko'chiboyev “zamon deyksisi, ko'pincha, pretsedent nomlar orqali tarixiy voqealarga ham ishora qilishini ta'kidlaydi⁴²:

Bu yerda faqat tun. Faqat tun. Tun. Tun...

Azobi – qabrga borishdan uzun.

Qahraton muallim beradi ta'lim –

“Stalin bilmaydi, o'rtoq Stalin”. (Saylanma, 229-b.)

Usmon Azim she'rlarida tarixiy voqealar, tarixiy shaxslarga ishora qiluvchi deyktik birliklar ko'p uchraydi. Bu orqali esa ixcham shakl vositasida keng mazmun ifodalashga erishiladi.

She'riy matnlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, muloqot jarayonida uning ishtirokchilari egallagan o'ringa hamda paytga ishora qilinishi makon va zamon deyksisi mazmunini tashkil qiladi. Shoir qalamga olgan voqea qaysi zamonda

⁴⁰ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 179.

⁴¹ Кўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарқанд, 2015. – Б. 96.

⁴² Кўчибоев А. Ко'rsatilgan manba. – Б. 97.

kechganligi yoki kechishini belgilashi uning tafakkuri, xayolot olamiga bog‘liq. Usmon Azim she‘rlarida voqelikning sodir bo‘lish o‘rni, zamoni har doim ham ochiq tarzda ifodalanmaydi. Muallif nazarda tutgan makon va zamon kitobxon tushungan makon va zamon bilan har doim ham uyg‘un holda bo‘lavermaydi. Zero, she‘riyatning sirliligi, o‘ziga xosligi ham shundadir.

Bobning uchinchi paragrafi “*Belgi va miqdor deysisini hosil qiluvchi birliklarning she‘riy matndagi o‘rni*” deb nomlangan. Bu paragrafda belgi va miqdorga ishora qiluvchi deytik birliklarning she‘riy matndagi o‘ziga xosligi, ifodalanish usullari borasida fikr yuritilgan. Tilda deytik birliklar sifatida qaraluvchi birliklarning ko‘lami keng qamrovli bo‘lib, yuqorida ko‘rsatilganidek, deytik birliklar qatoriga faqatgina olmosh va ravishlarni kiritib qolmasdan, boshqa mustaqil so‘z turkumlarini, xususan, belgi va miqdor ifodalovchi birliklarni ham kiritish mumkin. Bunday til birliklari muayyan muloqot matnida ishora qilish vazifasini bajara oladi. Natijada, deysisni yuzaga keltiradi. Xususan, sifat so‘z turkumida ham ishoraviylik xususiyati mavjud:

Sevgimiz o‘ldimi? – libosingiz ko‘k,

Ko‘nglingiz – begulxan, ko‘zingiz – becho‘g‘. (Saylanma, 299-b.)

Keltirilgan misralarda shoir motam ma‘nosini bildiruvchi “*ko‘k kiymoq*” birikmasiga ishora qilgan.

Tilshunoslikda *belgi* tushunchasi keng ma‘noda talqin etiladi. Belgi tushunchasi o‘z ichiga turli ma‘noviy guruhlar: rang-tus, maza-ta‘m, xarakter-holat, hajm-shakl kabilarni qamrab oladi. Nutq jarayonida belgi ma‘lum bir til birliklari orqali bevosita ifodalanishidan tashqari unga ishora qiluvchi birliklar orqali ham yuzaga chiqadi. Shunga ko‘ra belgi ifodalovchi birliklarni tilshunoslikda quyidagi turlarga bo‘lib tasnif qilinadi: 1) belgini bevosita ifodalovchi til birliklari; 2) belgiga ishora qiluvchi til birliklari. Muayyan til birliklari orqali belgiga ishora qilinishi *belgi deysisini* yuzaga keltiradi. Belgi deysisini ifodalovchi til birliklari *belgiga ishora qiluvchi deytik birliklar* sanaladi. Belgiga ishora qiluvchi til birliklarini N.D.Arutyunova pragmatik semantikaning asosiy mexanizmlarini namoyon etuvchi birliklar sifatida qayd etgan⁴³.

Belgiga ishora qiluvchi birliklar xilma-xil bo‘lib, mavjud tadqiqotlardan kelib chiqib, ularga *o‘sha, shu, ana bu (anavi), mana bu (manavi), ana o‘sha, shunday, bunday, mana shunday* kabi ko‘rsatish olmoshlari, *qanday, qanaqa* so‘roq olmoshi; *allaqanday, qandaydir* gumon olmoshlari; *hamma, bari, har qanday, barcha* kabi belgilash olmoshlari; *hech qanday (hech qanaqa), hech qaysi* bo‘lishsizlik olmoshlari, predmet belgisiga ishora qiluvchi sifatdoshlar hamda ayrim nisbiy sifatlar, kishilarning taxallusi va ularga qo‘yilgan ayrim laqablar, ramziy nomni ifodalovchi atoqli otlarni kiritish mumkin.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, atoqli otlar ham belgiga ishora qilib kelishi mumkin. Quyidagi misralarda *shunday* deysisi orqali g‘amning belgisiga ishora qilingan bo‘lsa, *Layli* atoqli oti orqali esa bu ism bilan bog‘liq tushunchalarga ishora qilingan:

⁴³ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 187.

*Yig'lama sen shunday g'am bo'lajaksan –
Ismi hadya etar Layli. Bemalol. (Sog'inch, 59-b.)*

Sifatning she'riy matnda ishoraviylik funksiyasini bajarishini quyidagi misralarda keltirilgan *bo'm-bo'sh beshik* birikmasi orqali ham ko'rishimiz mumkin. Bu o'rinda farzandidan erta ajragan onaning ruhiyati belgisiga ishora qilingan:

*Ayol cho'chib uyg'ondi. Alla aytdi xirillab-
(Yig'i tomog'ini bo'g'gan)*

Va shoshib tebratdi bo'm-bo'sh beshikni. (Saylanma, 91-b.)

Tahlillardan anglashiladiki, belgi deysisini hosil qiluvchi birliklar ishora qiluvchi obyektini aniqlashda matn qurshovi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur birliklarni pragmatik tahlil qilish esa ularning deysitik tabiatini yanada ochib berishga xizmat qiladi.

O'zbek tilida daraja-miqdorni bildiruvchi so'zlar bilan bir qatorda, ularga ishora qiluvchi birliklar ham qo'llaniladi. Mana shunday ishoraviy birliklar predmetning miqdorini ifodalab, miqdor deysisini yuzaga chiqaradi. Deysisning ushbu turi tilshunos olim Y.I.Sheygal tomonidan o'rganilgan. U, asosan, mazmuni kuchaytiruvchi so'zlar, ya'ni darajani ifodalovchi so'zlarning ishorasi orqali anglashiladigan deysisni miqdor deysisi hisoblagan⁴⁴.

Ma'lumki, nutqda *necha, qancha* so'roq olmoshlari, *har qancha* belgilash olmoshi, *hech qancha* bo'lishsizlik olmoshi, *allaqancha, qanchadir* kabi gumon olmoshlari, *shuncha, buncha, ana buncha* ravishlari orqali miqdor-darajaga ishoraviylik ifodalanadi. Shuningdek, nutqimizdagi *oz, ko'p, ko'plab, ancha* kabi miqdor-daraja ravishlari ham deysitik birlik sifatida qo'llaniladi.

Necha, qancha so'roq olmoshlari orqali miqdor deysisining ifodalanishi:

“Seni deb aqlimdan Necha bor ayrildim, muhabbat” (Saylanma, 72-b.)

“O, necha olamga bo'linding?”

Biri qasosga qo'l cho'zar, biri burar yuz”. (Yurak, 47-b.)

“Men qancha yalindim: Qol, men bilan qol.

Meni tashlab ketdi qishloqi bola”. (Saylanma, 13-b.)

Ozgina, ko'p kabi miqdor-daraja ravishlarining deysitik birlik sifatida qo'llanilishi:

“Ko'p go'zal ochilding, Jonim atirgul”. (Sog'inch, 93-b.)

“Bilaman, iltifot ozgina yolg'on,

Ammo dilga yoqar bu sodda shafqat”. (Saylanma, 54-b.)

Quyidagi misralarda *shuncha* deysitik birligi orqali miqdorga ishora qilingan bo'lib, keskin kinoya mazmuni anglashiladi. Bu o'rinda doim o'z so'zini haq deb biladigan, faqat dushmanlik istagan kishilar to'g'risida bayon qilingan:

Sen shuncha haqlisanki,

“Ablahsan” deyish qiyin. (Saylanma, 138-b.)

⁴⁴ Шейгал Е.И. Градация в лексической семантике. – Куйбышев: Куйбышевский гос. пед. инс-т, 1990. – С. 96.

O‘zbek tilida *bir dunyo, bir olam* kabi birliklar ko‘chma ma’noda qo‘llanib noaniq miqdorni anglatadi, ba’zan kontekst orqali ayni miqdorga aniqlik kiritilib, ularga deyktik vazifa yuklanishini kuzatish mumkin⁴⁵:

Men esa tun ichra bir shabnam,

Bir tomchi ko‘z yoshman-bir olam. (Sog‘inch, 83-b.)

Belgi va miqdorni bilvosita ifodalovchi deyktik birliklar turlicha bo‘lib, ularni matn qurshovida o‘rganish hamda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Usmon Azim she’rlarida qo‘llanilgan belgi va miqdorni ifodalovchi deyktik birliklar qahramon ruhiy holatiga, bo‘lib o‘tgan voqelikka ishora qilish vazifasini ham bajargan. Shuningdek, tasvirning ixchamligi va she’r matnining ta’sir doirasini kengaytirish bilan bir qatorda, matn qismlarini bog‘lash vazifasini ham bajargan.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“She’riy matnda deyksining sotsiopragmatik mazmun va subyektiv baho ifodalashi”** deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi paragrafida *“She’riy matnda ijtimoiy deyksining ifodalanishi”* haqida fikr yuritiladi. Muloqot jarayonida inson o‘z nutqida ham jamiyatning axloqiy-ijtimoiy qoidalariga bo‘ysunadi. U nutqida o‘zi (so‘zlovchi), tinglovchi va uchinchi shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, mavqeyi, ya’ni ijtimoiy holatini (jinsi, yoshi, kasbi, moddiy holati) anglagan holda muloqotga kirishadi. “Lisonning tizimiy ravishda kontekst bilan bog‘liqligini o‘rganish pragmatikaning vazifasidir. Turli ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarning turli vaziyatlarda ma’lum pragmatik manbalardan foydalanishi sotsiolingvistik tahlil uchun ham muhimdir”⁴⁶. Bu esa badiiy matn tahlilida so‘zlovchi maqomidagi shaxsning ijtimoiy holati, maqomini ham hisobga olish, uning qanday ijtimoiy rollarni bajarayotganiga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Dastlab bu borada L.Raupova dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqiga e’tibor qaratgan bo‘lsa⁴⁷, keyinchalik muayyan bir ijodkor misolida badiiy matnni sotsiopragmatik aspektda tadqiq qilishga oid qator tadqiqotlar yuzaga keldi⁴⁸. Sh.Safarov ijtimoiy deyksis haqida shunday munosabat bildiradi: “Deyksis hodisasining ijtimoiy belgilari haqida gapiriladigan bo‘lsa, muloqot ishtirokchilarining roli, ularning ijtimoiy tabaqalanish darajalari ham so‘zlovchi-adresat munosabatida aniqlanadi”⁴⁹. Muloqot jarayonida ishtirokchilarning ijtimoiy maqomi ularning kasb-kori, mansabi, qarindoshlik holati, oiladagi mavqeyi va o‘rni kabilarga nisbatan belgilanadi. Inson muloqotga kirishar ekan, tinglovchining diqqatini jalb qilishga, uni nutq jarayoniga tortishga harakat qiladi. Bu jarayonni boshlash uchun murojaat birliklaridan, nutqiy etiket shakllaridan foydalanadi. Nutq sohibining qo‘llagan birliklari uning ijtimoiy holati haqida axborot tashiy oladi. Ayniqsa, o‘zbek muloqot madaniyatida nutq tuzishda, muloqotga kirishishda nutq ishtirokchilarning

⁴⁵ Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик birliklari. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 63.

⁴⁶ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 135.

⁴⁷ Раупова Л. Диалогик дискурдаги полипредикатив birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 49 б.

⁴⁸ Yo‘ldasheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filol. fan. d-ri ... diss. – Qarshi, 2023. – 227 b.; Холмуродова М. Эркин Аъзам кинокиссалари тилининг сoциoпpагмaтик аспекти. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Андижон, 2021. – 51 б.; Ниязова Г. Детектив романлар тилининг сoциoпpагмaтик аспекти ва гендер хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 54 б.

⁴⁹ Сафаров Ш. Ko‘rsatilgan manba. – Б. 180.

jamiyat hayotida tutgan o'rniga katta e'tibor qaratiladi. V.I.Karasik⁵⁰ muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy holati hisobga olinmasa, muloqot sun'iy va provakatsion xarakter kasb etishini ta'kidlaydi.

O'zbek tilida ijtimoiy deyxsisni hosil qilishda ham lingvistik vositalar bilan birga ekstralingvistik vositalardan ham keng foydalaniladi. Kishilik olmoshlari deyxsisning boshqa turlarini hosil qilishda qanchalik faol bo'lsa, ijtimoiy deyxsisni yuzaga chiqishida ham juda faoldir. Olmoshlarning nutqiy vaziyatga bog'liq holda yoshidan, jinsidan qat'i nazar, katta, kichik, ayol, erkak, umuman, har qanday shaxsga nisbatan qo'llana olish imkoniyati uning ijtimoiy deyxsis vazifasini bajarishida qo'l keladi.

Ma'lumki, o'zbek tilida birlik va ko'plikda *men, biz* kishilik olmoshlari so'zlovchi shaxsni; *sen, siz* so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxsni; *u, ular* nutqiy muloqotda ishtirok etmayotgan shaxsni ifodalaydi. Nutqda *sen* olmoshi orqali so'zlovchi tinglovchiga ishora qilish bilan birga, yosh jihatdan kichik, teng, o'ziga yaqin deb hisoblagan kishilarga, shuningdek, ijtimoiy mavqeyi pastligiga ishora qilish, hurmatsizlik ma'nolarini ifodalash maqsadida qo'llaydi. Tilshunos olim Sh.Iskandarova⁵¹ *sen/siz* olmoshining nutqdagi vazifalari haqida to'xtalar ekan, o'zbek tilida *sen/siz* shakllari sharoitga moslangan, yuqori uslubiy bo'yodkorlikka ega bo'lgan lisoniy birliklar nutqiy odatning *siz* shakliga, uslubiy jihatdan oddiy, qo'polroq birliklar esa *sen* shakliga to'g'ri keladi, deb izohlaydi.

O'zbek tilida ijtimoiy deyxsisning hosil bo'lishida ijtimoiy xoslangan leksik birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Shevaga xos so'zlar, jargon va argolar, qarindoshlik terminlari, kasb-kor bilan bog'liq so'zlar ijtimoiy deyxsisning yuzaga kelishida muhim rol o'ynaydi. Muloqot ishtirokchilarining nutqida bunday so'zlarning qo'llanishi ularning qanday soha vakili, qaysi dialekt egasi ekanligi kabi ijtimoiy holatiga ishora qiladi. Bunday birliklar "individning kasb-kori, lavozimi, mavqeyi ta'sirida shakllangan xarakteri (huquqi), shu shaxsning majburiyati (burchi) bilan birga, uning kommunikativ aktda egallaydigan pozitsiyasini belgilab beradi"⁵².

Nutq egasi adresatga murojaat qilishdan oldin, albatta uning yoshiga, tanish-notanishlik darajasiga, mansabi, kasbi, millati, qarindoshlik yoki boshqa yaqinlik darajasiga e'tibor qaratadi va shunga mos tarzda ifoda birligini tanlaydi⁵³. Tadqiqotchi R.Davlatova ilmiy manbalarda ham murojaat birliklari "so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ko'rsatuvchi indikator"⁵⁴, "ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos markeri"⁵⁵ sifatida talqin qilinishini ta'kidlab o'tadi.

⁵⁰ Карасик В.И. Язык социального статуса. – М.: Институт языкознания АН СССР, Волгоградский педагогический институт, 1991. – С. 4.

⁵¹ Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – Б. 15.

⁵² Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 7.

⁵³ Давлатова Р. Ко'rsatilgan manba. – Б. 106.

⁵⁴ Рыжова Л.П. Обращение как компонент коммуникативного акта. – М.: ИРЯ им. А.С. Пушкина, 1982. – С. 3.

⁵⁵ Кожухова Л.В. Обращение как индикатор характера социальных и межличностных отношений: структурно-семантический и функциональный аспекты. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ставрополь, 2009. – С. 17.

*Erka bolam, kechir meni,
Oqsuyagim, muruvvat qil.
Toshli-toshli bu dunyoda
Maysaday xor yashadim bil.* (Saylanma, 303-b.)

Keltirilgan ushbu misralarda soʻzlovchi ota, tinglovchi bola mavqeyida boʻlib, soʻzlovchi bolasining oldida oʻzini aybdor sanaydi, yiqilib tushishida oʻzining ojizligini sabab qilib koʻrsatadi. *Oqsuyagim* deya farzandining ijtimoiy rolini yuqori sanashini, oʻzining esa *maysaday xor* holatda qiyinchilikda hayot kechirganini ifodalaydi.

Oʻzbek tilida qarindoshlikni bildiruvchi birliklar oʻrnida qoʻllanuvchi *volidayi muhtarama, padari buzrukvor, qiblagohim, qoʻzichogʻim* kabi boʻyoqdor leksemalar orqali ham ijtimoiy holat deysisi ifodalanadi.

– *Bolajon, sen meni tanimadingmi?*

Men seni tuqqanman. Qoʻzim, onangman! (Saylanma, 113-b.)

Sheʼrning ikkinchi misrasida qoʻllanilgan *qoʻzim* deytik birligi orqali subyektning ona ijtimoiy rolida boʻlganligi anglashiladi.

Sheʼriy matnlardagi ijtimoiy deysislar soʻzlovchi va tinglovchining ijtimoiy mavqeyiga ishora qiladi. Shoir sheʼrlarida soʻzlovchi turli ijtimoiy rollarda: *ona, ota, farzand, aka, uka, er, oshiq* timsolida namoyon boʻladi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi “*Emotsional deysisni ifodalovchi birliklarning sheʼriy matndagi oʻrni*” deb nomlangan. Nutqiy muloqot jarayonida insonning his-tuygʻusi, uning voqelikda kechayotgan hodisalarga nisbatan boʻlgan shaxsiy munosabati tarkib topishi barchaga maʼlum. Shu sababli, his-tuygʻu munosabatini aks ettiruvchi lisoniy belgilarning emotsional deysis vositalari sifatida qaralishi alohida diqqatga loyiqdir⁵⁶. Sh.Mahmudova emotsional deysisni ifodalovchi omillarini ikki guruhga ajratgan⁵⁷:

1) vaziyatdan ustun, yaʼni vaziyatga bogʻliq boʻlmagan omil (milliy madaniyatga asoslangan boʻlib, nutq ishtirokchilari hissiyotlarini ifodalashida milliy-madaniylik nafaqat nutqida, balki xarakterida ham namoyon boʻladi);

2) vaziyatga bogʻliq omil (nutq ishtirokchilarining holati, oʻzaro munosabati, yoshi, jinsi, tajribasi kabilarga tayanadi).

Emotsional deysis shaxsning (soʻzlovchining) voqelik bilan munosabati natijasidir va uning ifoda vositasi til tizimining turlicha sathlariga oid lisoniy birliklar sanaladi. Emotivlik har qanday nutqiy harakatga xos boʻlib, soʻzlovchi kechayotgan voqelikni idrok qilishda betaraf boʻlmaydi, unga bevosita oʻzining munosabatini, aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, his-tuygʻularini qoʻshadi. Bu turli vositalar yordamida namoyon boʻladi. Emotsionallikning nutqiy faoliyatda turli koʻrinish va darajalarda ifodalanishi his-tuygʻuni izhor qilish maqsadi, modallik mazmuni, ohangdoshlik kabi nutqiy birliklar orqali hosil boʻladi. V.V.Shaxovskiyning fikricha, turli soʻzlovchilar qoʻllaydigan emotiv nutqiy

⁵⁶ Жура В.В. Эмоциональный дейксис в вербальном поведении английской языковой личности. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2000. – С. 9; Шаховский В.И. Эмоциональный дейксис речевого жанра // Языковая личность: жанровая речевая деятельность. Волгоград: ВГПУ, 1998. – С. 21.

⁵⁷ Махмудова Ш. Способы выражения эмоционального дейксиса // http://nbuv.gov.ua/j-pdf/Nvkyu_2019_38_22.pdf.

tuzilmalarning mazmun va ifodasi muloqot ishtirokchilarining emotsionallik ifodasiga bo‘lgan ehtiyoji, maqsadi bilan bog‘liq. Bu ehtiyoj so‘zlovchining voqelikka munosabati, uni idrok etish maqsadi bilan belgilanadi. Aynan shu maqsadning lisoniy ifodalanishi emotsional deysisning voqelanishidir⁵⁸. Usmon Azim she‘rlarini tahlil qilish jarayonida emotsional deysisni boshqa deysis turlariga nisbatan ko‘proq ifodalanganini guvohi bo‘ldik.

O‘zbek tilida shaxslarning emotsional holatiga ishora qiluvchi turli deyktik birliklar mavjud. Bu vazifani bajarishda fonopragmatik vositalar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, intonatsiya hamda tovushlarning cho‘ziq talaffuz etilishi, ikkilantirilishi kabi fonetik hodisalar so‘zlovchining turli emotsional holatiga ishora qiladi.

Men baxtni ko‘rganman. Ko‘rganman. Aniq,

O‘rdada nogahon kelgan ro‘baro‘.

Qish kuni. Paltoga olgan o‘ranib,

Besas bir hayratda qotganman: – Voy-bo‘o‘!.. (Sog‘inch, 52-b.)

Ushbu misralarda undov tarkibidagi tovushni cho‘zish orqali so‘zlovchining emotsional holatiga ishora mavjud bo‘lsa, keyingi misralarda esa bu holatni fe‘l tarkibidagi tovushni cho‘zish orqali ifodalanganini ko‘rishimiz mumkin.

“Qanday kun ko‘rayotganlarini

Bilmaydi bu odamlar...”, – deb,

Yig‘la-a-ab o‘tiramiz!.. (Saylanma, 74-b.)

O‘zbek tilida emotsional holatga ishora qiluvchi faol morfologik birliklardan biri his-tuyg‘uni ifodalovchi undovlardir. *Oh, eh, e, voy, ohho, ura, obbo, uh, dod, eha...* kabi bir guruh undov so‘zlar mustaqil qo‘llanganda lug‘aviy ma‘noga ega emasligi, ular ifodalagan ma‘noning matn qurshovida belgilanishi pragmatik xarakterga egaligini, nutq ishtirokchilarining emotsional holatiga ishora etishi esa deyktik vazifaga xoslanganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot ishida yuqorida sanab o‘tilgan undov so‘zlarning she‘riy matnda emotsional deysisni ifodalashi misollar orqali yoritib berilgan.

Uchinchi bobning so‘nggi paragrafi “*She‘riy matnda ilohiy tushunchalarga ishora qiluvchi deyktik birliklarning ifodalanishi*” deb nomlangan. Bu paragrafda deysisning noodatiy bo‘lgan turi ilohiy tushunchalar deysisi haqida munosabat bildirilgan hamda misollar bilan dalillangan. Ma‘lumki, keyingi davrlarga kelib tilshunoslikdagi yangi paradigma hisoblanuvchi antroposentrizm negizida diniy lingvistikani o‘rganishga qaratilgan yangi yo‘nalish teolingvistika vujudga keldi. Teolingvistika termini inglizcha *theo* – din, xudo va *linguistics* – tilshunoslik so‘zlaridan kelib chiqqan. Lug‘atlarda ushbu terminga oid quyidagicha ta‘rifni uchramiz: “Teolingvistika – diniy tilni o‘rganuvchi fan”⁵⁹. Teolingvistika sohasi bir jihatdan matn tilshunosligiga, ikkinchi jihatdan esa pragmalingvistika yo‘nalishiga aloqadorligi bilan xarakterlidir⁶⁰. Tahlilga tortganimiz ilohiy

⁵⁸ Шаховский В.И, Жура В.В. Дейксис в сфере эмоциональной речевой деятельности // ВЯ., 2002. – №5. – С. 45.

⁵⁹ <https://www.definitions.net/definition/theolinguistics>; www.yourdictionary.com; en.wiktionary.com.

⁶⁰ Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – Б. 14.

tushunchalarga ishora qiluvchi deyktik birliklar aynan teolingvistika sohasiga aloqador leksik birliklar hisoblanib, bu birliklar she'riy matnning falsafiy va tarbiyaviy jihatdan ta'sirini yanada ortishiga xizmat qilgan.

Usmon Azim ijodi rang-barang, turli-tuman tasvir vositalari, timsollarga yo'g'rilgan. Shoirning diniy leksika hamda murojaat vositalaridan mahorat bilan foydalanishi uning she'rlarini mazmunan boyitgan. Bu shakllar orasida yil fasllariga, tabiat hodisalari nomlariga, inson his-tuyg'ulariga, umuman, tabiatdagi barcha jonli va jonsiz narsalarga qaratilgan murojaatlar borki, ularning har biri o'ziga xosdir. Shoir she'riyatida yaratganga iltijo, unga murojaat qilish o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Uning she'rlarida o'zbek tili lug'atidagi *Xudo, Alloh, Tangri, Egam, Rab, Parvardigor* kabi an'anaviy murojaat shakllaridan unumli foydalanilgan:

Yomg'irlaring bir dunyo xitob!

Olam qayta yaraldi – yangi!

Mening qaysi “oh”imga javob –

Yig'laysanmi shunaqa, Tangrim? (Saylanma, 361-b.)

Ayniqsa, shoir ijodidagi sevgi, muhabbat mavzusidagi she'rlar bir qarashda sevgilisi, mahubbasiga atalganday tuyulsa-da, undagi falsafiy qarashlar, xulosalar, qalb tug'yonining ifodasi o'laroq yuzaga kelgan misralarda deyktik birliklar shaxsga emas, yaratganga nisbatan ekanligini sezish mumkin. Shoir she'rlarida Allohga nisbatan *sen* olmoshi vositasida ishora qilinadi:

Senga yetmoq uchun

O'zimdand

O'tishim kerak.

Faqat o'zimdand...Faqat...

Meni buncha ulkan yaratgansan?

Sensiz esa

Yashashning hech iloji yo'qdir. (Jimlik, 39-b.)

Keltirilgan misralarda *sen* deyksisi dastlabki misralarda sevgilisiga yetisha olmayotgan oshiqning kechinmalarini ifoda qilganday tuyuladi. Keyingi misralarda esa buning shaxsga emas, yaratganga qaratilganligi aniqroq namoyon bo'ladi. Buni esa keyingi misralarda qo'llangan *yaratgansan* fe'lidan bilib olish mumkin.

O'zbek tilida “*o'zingga shukur*”, “*o'zingga ayon*”, “*yolg'iz o'zing qodirsan*” kabi birikmalar faol qo'llaniladi. Musulmon kishiga *o'zing* olmoshining kimga nisbatan qo'llanilayotganini tushuntirib berishning hojati yo'q. O'zbek tilida *o'zing* deyktik birligi tinglovchi shaxs muloqot jarayonida ishtirok etmagan holatlarda har doim Allohga nisbatan qo'llaniladi:

Uchta faslim esa – oshkor,

Bunga o'zing ham guvoh,

Boshimda – qish, qalbdanda – bahor,

Taqdirimda – tiyramoh. (Yurak, 9-b.)

Usmon Azim she'rlarida yaratganga ishora qilish bilan bir qatorda, oxiratga hamda boshqa ilohiy tushunchalarga ham ishoraviylik mavjud bo'lib, bu esa shoirning dunyoqarashi kengligini va o'ziga xos uslubga egaligini ko'rsatadi.

*Tinglayman dunyoning mangu kuyini,
Tayyorman eng so'nggi yo'lga borishga.* (Saylanma, 129-b.)

Yuqoridagi misralarda *so'nggi yo'lga borish* deytik birligi orqali oxiratga ishora qilingan bo'lsa, quyidagi misralarda esa shoirning o'lim yetguncha o'zligini topganiga, umrining tugab borayotganiga *bu chin dam* birikmasi orqali ishora qilingan. Bu o'rinda nutq ishtirokchilaridan shoir aytmoqchi bo'lgan fikrni tasvir vositalari ichidan, shoir qilayotgan so'z o'yini zamiridan topib olish talab qilinadi.

*Bu chin damda qancha zil afsun –
Qanday foje damlarga qoldim?
Kimning aybi? Axir ne uchun,
Ketmoqdaman umrimdan oldin?* (Yurak, 263-b.)

She'riy matnlar tilining alohidaligi nutq egasining lisoniy birliklardan foydalanishda o'ziga xoslikni ta'minlashga, deyksisning qo'llanishida ham alohidalik kasb etishiga xizmat qiladi. Yuqorida tahlil qilganimiz deyksisning ushbu noodatiy turi hech bir deyksis nazariyasiga oid tadqiqotlarda uchramasligini ta'kidlash lozim. Buni esa millat ruhi, islomiy dunyoqarash hamda muloqot madaniyati kabilar bilan bog'liq deb bilamiz.

UMUMIY XULOSALAR

1. Tilda aks etgan voqelik har doim ham hamma axborotni ifodalayvermaydi. So'zlovchi o'zining pragmatik maqsadiga muvofiq tarzda ba'zi axborotlarni yashirin ifodalaydi. Nutqda so'zlovchining maqsadidan kelib chiqqan holda til birliklari o'rtasidagi mazmuniy aloqani topish, kontekstga murojaat qilish va u orqali nutq ishtirokchilariga ma'lum bo'lgan axborotni tiklash kabilar *deyksis* hodisasini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi.

2. Kommunikativ jarayon paytida muloqot ishtirokchilari va ularning ijtimoiy mavqeyi, emotsional holati; nutq sodir bo'lgan zamon, makon, nutq qaratilgan shaxs, predmet, harakat-holat, voqea-hodisa, belgi, miqdor kabilarga til birliklari yoki boshqa belgilar orqali ishora qilish deyksis hodisasi sanaladi. Tilshunoslikda deyksis hodisasi kommunikativ-pragmatik hodisa sifatida nutqning shakllanishida hamda uning tinglovchiga to'g'ri yetkazib berilishida muhim o'rin tutadi.

3. She'riy matnda deytik birliklarning qo'llanilishi nasriy matnda qo'llanilishidan farq qiladi. Deytik birliklar nasriy matnda, asosan, nutqdagi takrorning oldini olishga, bir so'zni qayta qo'llash orqali uslubiy g'alizlikni yuzaga chiqishini bartaraf qilishga xizmat qiladi. She'riy matnlarda esa bir so'z yoki jumlaning takror qo'llanilishi orqali kuchli ta'kid ma'nosi ham ifodalanadi.

4. Pragmalingvistikada anafora va deyksis o'xshash hamda yondosh hodisalar sifatida baholanadi. Anafora nutqda deytik birliklar orqali reallashadi. Bizningcha, bu hodisalarni farqlash maqsadga muvofiq, lekin anafora ham ishora qilish, ko'rsatish kabi funksiyalarni bajaradi. Shuningdek, u deyksis bilan doimiy aloqadagi hodisadir.

5. Muloqot faoliyati uchun zamon hamda makon hodisalari muhim ahamiyatga ega. Har bir voqea ma'lum bir makon va zamonda kechadi,

shuningdek, u yoki bu hodisa haqidagi axborotni qabul qilayotgan tinglovchi uning qachon, qayerda sodir bo'lganligini bilishga intiladi. Nutqiy aktlarning bu turi pragmatik jihatdan ma'kon va zamon deysisida o'rganiladi.

6. Matnning mazmunan to'liq, mukammal, badiiylik jihatidan yuksak bo'lishida har bir birlikning o'z o'rnida qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Deyksis ana shunday vositalardan biri sanalib, matnda juda ko'p vazifalarni bajara oladi. She'riy matnlar tili o'ziga xosligi, nutq tuzuvchining lisoniy birliklardan foydalanishda uslubiy jihatdan individuallikni ta'minlashda deysitik birliklar muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Nutqimizda belgi va miqdorni bilvosita ifodalovchi deysitik birliklar turlicha bo'lib, ularni matn qurshovida o'rganish hamda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Usmon Azim she'rlarida qo'llanilgan belgi va miqdorni ifodalovchi deysitik birliklar qahramon ruhiy holatiga, bo'lib o'tgan voqelikka ishora qilish vazifasini ham bajargan. Shuningdek, tasvirning ixchamligiga va she'r matnining ta'sir doirasini kengaytirishi bilan bir qatorda, matn qismlarini bog'lash uchun ham xizmat qilgan.

8. Nutq muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy holati haqida ma'lumot tashish bilan birga, ularning dunyoqarashi, muloqotga kirisha olish imkoniyatlari haqida ham ma'lumot beradi. Inson muloqotga kirishar ekan, tinglovchining diqqatini jalb qilishga, uni nutq jarayoniga tortishga harakat qiladi. Bu jarayonni boshlash uchun murojaat birliklaridan, nutqiy etiket shakllaridan foydalanadi. Nutq sohibining qo'llagan birliklari uning ijtimoiy holati haqida axborot tashiy oladi.

9. O'zbek tilida ijtimoiy deysisning yuzaga kelishida ijtimoiy xoslangan leksik birliklarning muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Shevaga xos so'zlar, jargon va argolar, qarindoshlik terminlari, kasb-kor bilan bog'liq so'zlar ijtimoiy deysisning yuzaga kelishida muhim rol o'ynaydi. Muloqot ishtirokchilarining nutqida bunday so'zlarning qo'llanishi ularning qanday soha vakili, qaysi dialekt egasi ekanligi kabi ijtimoiy holatiga ishora qiladi.

10. Usmon Azim she'riyatida Allohga, oxiratga, umrning o'tkinchiligiga ishora qiluvchi deysitik birliklar faol qo'llangan. Buni millat ruhi, islomiy dunyoqarash hamda muloqot madaniyati kabilar bilan bog'liq deb bilamiz. Ilohiy tushunchalarga ishora qiluvchi bunday deysitik birliklar bilan bir qatorda, misralarda emotsional hamda ijtimoiy holatga ham ishoraviylik parallel ravishda ifodalanadi. She'riy matnlardagi ilohiy tushunchalarga ishora qiluvchi birliklar presuppozitsiya ifodalashi bilan mazmunni yanada murakkablashtirgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

САРБАРОВА ДИЛНОЗА НОСИРЖОН КИЗИ

**ДЕЙКСИС В ПОЭТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ
(НА ПРИМЕРЕ СТИХОВ УСМАНА АЗИМА)**

10.00.01 - Узбекский язык

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент – 2025

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей
Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и
инноваций Республики Узбекистан за №B2025.2.PhD/Fil4651.**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета www.uzmu.uz и на информационно-образовательном портале “Ziyonet” www.ziyonet.uz.

Научный руководитель: **Курбанова Мухаббат Матякубовна**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Раупова Лайло Рахимовна**
доктор филологических наук, профессор

Умурзокова Мархабо Эгамбердиевна
доктор филологических наук (DSc), доцент

Ведущая организация: **Наманганский государственный
университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана “_____” _____ 2025 года в ____ час. Адрес: 100174, г.Ташкент, ул. Университет, 4. Тел.: (99871) 246-08-62; (99871); (99871) 227-10-59; факс: (99871) 246-65-24 e-mail: nauka@nuu.uz. Национальный университет Узбекистана, факультет журналистики и узбекской филологии (1-этаж, комната 108).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №____). Адрес: 100174, г.Ташкент, ул. Университет, 4. Тел.: (99871) 246-08-62.

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2025 года.

(Протокол рассылки № _____ от «____» _____ 2025 года).

Н.А.Рахмонов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор фил.наук, профессор

М.Б. Хужамкулова
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор фил. по фил.наукам, доцент

А.Э. Маматов
Председатель научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
доктор фил. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике с конца прошлого века уделяется внимание человеческому фактору, анализу говорящего в речевом процессе, фокусируясь на нём. С появлением антропоцентрической парадигмы в лингвистике изменился и подход к языковым явлениям. В результате нового подхода к исследованию языка появились исследования в прагматическом, когнитивном, лингвокультурологическом и социолингвистическом аспектах. В работах, проводимых в области прагмалингвистики, одного из этих направлений, языковые единицы изучаются во взаимосвязи с контекстом, процессом коммуникации, восприятием говорящим и слушающим внешнего мира.

Сегодня мировая лингвистика достигла значительных успехов в области прагмалингвистики, которая изучает язык во взаимосвязи с такими факторами, как речевые ситуации и контексты, общие знания носителей языка о внешнем мире, языковые ресурсы, возможности использования языка, понимание единиц, выражающих скрытый смысл в процессе речи, и языковые навыки. В частности, был проведен ряд исследований, посвященных дейктическим единицам, которые являются объектом нашего исследования. Использование дейктических единиц в поэтическом тексте, возможности текстообразования и их роль в формировании стиля автора еще не полностью изучены. Учитывая, что каждый автор обладает различными и уникальными возможностями использования языка, в этом направлении еще предстоит провести ряд исследований.

В настоящее время в Узбекистане реализуются реформы, направленные на дальнейшее развитие науки и образования, особенно последние указы и постановления, направленные на дальнейшее повышение статуса узбекского языка как государственного, и развитие которых возлагает на лингвистов ответственные задачи. Тот факт, что тема диссертации посвящена изучению языка во взаимосвязи с человеческим фактором, обосновывает актуальность и соответствие исследования требованиям современности. Как известно, среда непосредственного общения наиболее полно раскрывает свой потенциал и особенности в тексте. Соответственно, изучение прагматических характеристик языковых единиц требует более глубокого изучения лингвистики текста. Ведь именно через текст можно более чётко понять цель говорящего при передаче информации и то, как её воспринимает слушающий.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: Указ Президента Республики Узбекистан от 13 мая 2016 года № УП-4797 «О создании Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 г. «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2017 года № УП-

4958 «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6084 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», а также в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан, касающихся данной сферы деятельности.

Соответствие темы исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование проводилось в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Социально-правовое, экономическое, культурное, духовно-образовательное развитие информационного общества и демократического государства, формирование инновационной экономики».

